

## TURKISTON HUDUDIDA YER-SUV ISLOHATIDAGI O'ZGARISHLAR VA UNING NATIJALARI

*Chariyev Nuriddin Xushboqovich*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi.*

### **Annotatsiya**

Maqolada Turkistonda yer-suv islohatlari, dehqonchilik ishlarining ravnoqi, pomeshchik yer egaligining vujudga kelishi, quloqlar va ularning olib borgan faoliyatlari, xonliklarda kapitalistik munosabatlarning shakillana boshlashi, sudxo'rluk munosabatlarining vujudga kelish bayon etib o'tilgan.

### **Аннотация**

В статье описываются земельная и водная реформы в Туркестане, баланс сельскохозяйственных работ, возникновение помещичьего землевладения, кулаков и их активистов, начало капиталистических отношений в ханствах, возникновение ростовщических отношений.

### **Abstract**

The article describes the land and water reforms in Turkestan, the balance of agricultural work, the emergence of landlord land ownership, the kulaks and their activists, the beginning of capitalistic relations in the khanates, and the emergence of usurious relations.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, pomeshchik, desyatina, dehqon, veksel, mulkchilik, quloq xo'jaliklari, kapitalistik munosabat, mulk, vassal, Imperiya, yer egaligi, qashshoqlik.

**Ключевые слова:** Туркестан, помещик, десятина, крестьянин, вексель, собственность, графство, капиталистические отношения, империя, землевладение, бедность.

**Key words:** Turkestan, landlord, desyatina, peasant, promissory note, ownership, earldoms, capitalist relationship, property, vassal, Empire, land ownership, poverty.

Suv ilohiy ne'mat, suvga xurmat bilan qarash, uni asrash, behuda sarflamaslik tushunchalari xalqimiz ongiga azaldan singdirib kelingan. So'nggi paytda atrof-muhitni va uning resurslarini, jumladan, eng muhim ne'matlardan biri – suvni muhofaza qilish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon hamjamiyatini aholini va iqtisodiyotni suv bilan ta'minlash muammosi tashvishlantirmoqda. Zero, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugun sayyoramizda 1 milliarddan ziyod odam toza suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Kelgusida aholi sonining muttasil o'sib borishi va

iqlim o'zgarishlari oqibatida suv resurslari taqchilligi yanada keskinlashadi. Mintaqaning asosiy daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqimlari yuqori qismida joylashgan mamlakatlarning amaldagi xalqaro me'yorlarni buzish orqali transchegaraviy suv resurslarini ekspluatatsiya qilishga intilishlari katta tashvish tug'diryapti.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining mustamlakasi hisoblanar edi. Rossiya saltanati bu yerda o'zining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosat yuritar edi. Rus hukumati o'lka tabiiy boyliklarini o'zlashtirish, uni yirik xom - ashyo bazasiga aylantirish, moddiy boyliklarni imkon darajada arzon va qulay qilib tashib ketishga intildi. Shu bois xonliklarda garchi kapitalistik munosabatlar ma'lum darajada o'sgan bo'lsada, imperiyaning qoloq chekka o'lkalaridan biri bo'lib qolayotgan edi. Rossiyaning vassallari sanalmish Buxoro va Xiva xonliklari esa taraqqiyot borasida Turkistonning Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona oblastlaridan ko'ra ancha orqada edi. Bunga sabab, qishloq xo'jaligida feodal munosabatlarining saqlanib qolishi va uning chor Rossiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi edi.

Rossiyadagi pomeschik va quloq xo'jaliklari qishloqda yer uchun kurashni keltirib chiqqan edi. Shunga o'xshash holatni Turkistonda ham ko'rish mumkin edi. Qishloqda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan mulkiy tabaqalanish kuchayib bordi. E'tirof etish kerakki, Turkistondagi yer egaligi Rossiyadagiga nisbatan kichikroq bo'lib, o'rtacha 100-150 desyatnani tashkil qilgan. Ammo paxtachilik tufayli bu yerlar ancha katta qiymatga ega edi. Mahalliy boylar rus savdo-sanoat korxonalarini bilan paxtakor dehqonlar o'rtasida vositachilik rolini bajarishgan. Rus kapitali Turkistonda maxsus paxtachilik rayonlarini tuzish va uni moliyalashtirish bilan shug'ullangan. Savdo firmalari tomonidan paxtakor dehqonlarga beriladigan qarzlarning shartlari g'oyat og'ir bo'lib asoratga solishga mo'ljallangan edi. Negaki, dehqonlar mashaqqatli mehnatlari evaziga yetishtirgan paxta xom ashyosini vositachi boylarga arzonga sotgach, topgan pullarini davlatga turli soliqlarni to'lash, so'ngida esa, sudxo'r boylardan olingan qarzlarni ham qaytarishga majbur edilar. Sudxo'rlik tariqasida berilgan qarzlarni yillik 50% va undan ham ortiqroq bo'lar, garovga yer qo'yilar, qarzini to'lolmagan dehqonning yeri sotib yuborilar edi.

Rossiya markaziy qismidagi to'qimachilik korxonlarining paxta xom ashyosiga talabi ortib borar ekan, mavjud yer zahiralari bilan bu ehtiyojni qoplab bo'lmas edi. Buning uchun bo'sh turgan yerlarni o'zlashtirish lozim bo'lgan. Imperiya hukumati va rus kapitalistlari Turkistondagi sug'orish tizimlarini yaxshilash uchun deyarli hech qanday ish qilishmagan. 1915-yilga kelib Turkistondagi butun sug'orish inshootlarining atigi 6% yangi qurilgan kanallar edi.

Asta-sekinlik bilan bo'lsada, Buxoro amirligi qishloq xo'jaligiga kapitalistik munosabatlar kirib kela boshladi. Rus mustamlakachilari Buxoro amirligidan ko'proq

paxta olishga intilib, g'oz maydonlarini kengaytirish yo'llarini o'rgana boshladilar. Shu maqsadda ular Surxon vohasidagi beklilik va amlokdorliklar, shahar va qishloqlarni har tomonlama o'rganishga kirishdilar. Natijada, Surxon vohasi rus kapitali diqqatini o'ziga jalb etgan yirik makonga aylandi. Buxoro amirligi qo'shbegisining 1915-yilgi ma'lumotiga ko'ra, Surxondaryo havzasida Sherobod, Boysun, Sarijo'y, Denov bekliliklari joylashgan bo'lib, ular —viloyat deb atalgan. Har bir viloyat amlokdorliklarga bo'lingan. Bular quyidagilardir:

Boysun viloyati – Darband, Dahparakent, Egriariq, Kofrun-Yomchirabot, Kiyiktu, Qumqo'rg'on, Laklakon, Machay-Kentala, Pasurxi, Poshxurd va Xatak amlokdorliklariga bo'lingan;

Sherobod viloyati – Gilambob, Jarqo'rg'on, Maydaariq, Pattakesar, Saidobod va Tallashqon amlokdorliklaridan iborat bo'lgan;

Sarijo'y viloyati – Oqqo'rg'on, Gazarak, Dashtnabot, Regar, Sariosiyo, Sarijo'y, Sharg'un amlokdorliklaridan tashkil topgan;

Denov viloyati – Bobotog', Davrqo'rg'oni Denov, Dashar, Po'stindara, Sangardak, Sina, Xizirsho amlokdorliklariga bo'lingan.

1916-yil yozida Sherobod vohasini statistik-iqtisodiy jihatdan o'rgangan Vladimir Petrovich Golovkin va Konstantin Mironovich Gorodeskiy Sherobod bekligida yana Cho'chqaguzar amlokdorligi bo'lganligini qayd etishadi<sup>1</sup>. Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, Buxoro amirligida vaqti-vaqti bilan yangi amlokdorliklar va hatto bekliliklar tashkil etib turilgan, o'zini oqlamagan ma'muriy-hududiy birliklar esa tugatib yuborilgan.

O'lkada yer egaligining uch turi bo'lgan. Davlat yerlari —amlok, xususiy yerlar —mulk, masjid va madrasalar yerlari —vaqf deyilgan. Mulk yerlari o'z navbatida quyidagi turlarga bo'lingan:

1. Mulki xurrixolis – barcha soliqlardan ozod qilingan yerlar. Bunda yer egasi faqat ariq tozalash uchun ishchi yuborishi kerak bo'lgan.

2. Mulki ushr – hosilning o'ndan biri hisobida soliq to'laydigan yerlar. Bu soliq naqd pul bilan undirilgan.

3. Mulki xiroj – hosilning beshdan bir qismida soliq to'laydigan yerlar.

Vaqf yerlari barcha soliq va majburiyatlardan ozod qilingan. Bu yerlarning bir qismi —dahyak deb atalib, hosilning o'ndan bir qismi xayr-ehson uchun ishlatilgan.

Buxoroda amlok yerlarining barchasi davlatga tegishli bo'lgani uchun, uni ishlatadigan kishilar amir foydasiga ijara haqini to'lashi lozim edi. Amir bu yerlarni istalgan kishisiga berishi yoki olib qo'yishi mumkin bo'lgan. Bundan chet el kapitali unumli foydalandi. Negaki, zamonaviy qishloq xo'jalik boshqaruvini tushunmaydigan amir amaldorlari juda ko'p bo'lib, ular orqali dehqonlarni har tomonlama ezib ishlatish va o'lka boyliklarini talash oson edi. Shuni inobatga olgan rus mustamlakachilari o'z diqqatlarini amirlik yerlarini qo'lga kiritishga qaratishdi.

Rus ishbilarmon doiralarini ayniqsa, Sherobod bekligining unumdor yerlari qiziqtirgan. Shu bois 1916-yil yozida —Sherobod aksionerlik jamiyati tomonidan beklilik hududi har tomonlama va chuqur o'rganilgan. Unga ko'ra, Sherobod bekligi aholisi 45000 kishidan iborat bo'lib, quyidagi rayonlarda o'rinishgan.

1.Sherobod shahri tevaragidagi rayon. Unga Gilambob, Tallashqon, Maydaariq va Saidobod amlokдорligining bir qismi kirgan. Bu hududda o'zbek tilida so'zlashuvchi 26 ming kishi yashagan.

2.Angor qishlog'i atrofida rayon. Unga Saidobod amlokдорligining qolgan qismi kirgan. Aholisi 6000 kishi bo'lgan.

3.Jarqo'rg'on qishlog'i tevaragidagi rayon. Aholisi 5560 kishini tashkil etgan. Angor va Jarqo'rg'on rayonlari aholisi qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali, ochamayli, chig'atoy, qonjig'ali urug'laridan iborat bo'lgan.

4.Pattakesar va Cho'chqaguzar amlokдорliklari rayoni. Aholisi 8000 kishi bo'lib, yarmi o'zbeklar, qolganini turkmanlar tashkil etgan<sup>2</sup>.

Sherobod bekligi aholisi Pattakesar va Sherobod shaharlaridagi bir necha o'n savdogar xo'jaligini hisobga olmaganda to'liq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Dehqonlar savdo-sotiq bilan faqat qish paytlarigina mashg'ul bo'lishgan. Ular tomonidan yetishtirilgan paxta xom ashyosi Taskand qishlog'ilik Alimardon va soliobodlik Mo'minxo'ja tomonidan sotib olingan. Shuningdek, savdogarlarning yana bir turi bo'lib, ular bir joydan ikkinchisiga quyidagi tartibda – Jarqo'rg'on-Ko'kaydi-Sherobod-Angor-Pattakesar yo'nalishi bo'yicha o'chib turishgan.

Yuqoridagilardan Pattakesar va Cho'chqaguzar amlokдорliklari 1894-yilda Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy nazoratiga o'tganligi bois rus tadqiqotchilarining asosiy e'tibori qolgan beshta amlokдорlikka qaratilgan. Shu bois keyingi o'rinlarda faqat Gilambob, Tallashqon, Maydaariq, Saidobod va Jarqo'rg'on amlokдорliklari nazarda tutiladi. 1916-yil yozidagi ma'lumotlarga ko'ra, beshta amlokдорlikda yashovchi 7347 oilaning 6,9% yersiz edi. Ular odatda Boysun bekligidan ko'chib kelgan kishilar bo'lishgan. 900 oila (12,8) oz yerli, qolgan 80 % yerli xo'jaliklar sanalgan. Yer bilan ta'minlanganlik darajasi qishloqlarda turlicha bo'lgan. Masalan, Rabotakda 1 desyatina, Yangiariqda 1 1/3 desyatina, Azizonda 2 2/3 – 3 1/3 desyatina, Istara va Gilambobda 6 2/3 desyatina, So'xtada 10 desyatindan ortiq yeri borlar yer bilan ta'minlanganlar sirasiga kiritilgan<sup>3</sup>.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, chor Rossiyasi davrida Surxon-Sherobod xududlarida yer egaligi borasida solmoqli ishlar amalga oshirilib, kapitalistik munosabatlarning ilk ko'rinishlari shakillana boshladi. Bugungi kunda turli xil global muammolar mavjud bo'lib, bu muammolar qatoriga dunyo bo'yicha chuchuk suvning tanqisligi ham dadil qadam tashlab bormoqda. Bu muammoni bir yoqlamalilik bilan hal etib bo'lmaydi, bunga qarshi butun dunyo xalqlari birgalashib kurashmog'i lozim. Shundagina bu muammoni oldini olish mumkin bo'ladi. Biz esa yurtimizdagi har bir

tomchi suvni ko'z-qorachig'imizday asrashimiz lozim, chunki bu bizning – kelajak avlodlarimiz oldidagi burchimizdir. Bilamizki, cuv iste'molchilari uyushmalari - suv resurslarini boshqarishdagi juda muhim zveno bo'lib hisoblanadi, ammo bugungi kunda ushbu zvenoning talab darajasida ishlamasligi munosabati bilan juda kata suv yo'qotilishlari yuzaga kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 377-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 15-varaq.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 377-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 16-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 377-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 17-varaqning orqasi.
4. A.M. Arifjanov, K.T. Raximov, A.K. Xodjiev - *Gidravlikal Toshkent* – 2016y. 136 b.
5. Ермолов А. С. Неурожай и народное бедствие. – СПб.: Тип. В. Киршбаума, 1892. –С.184.
1. Ермолов А. С. Неурожай и народное бедствие. – СПб.: Тип. В. Киршбаума, 1892. –С.190.
2. Кошко И. Ф. Мелкий народный кредит как могучее средство борьбы с обеднением нашего крестьянина. – Новгород, 1899. – С. 7.